

## MEHR KO‘RGAN, MEHR QO‘YGAN USTOZIM

*Zafar Mamatalimov*

*Alfraganus universiteti dotsenti, filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

### Boshlov

Taniqli folklorshunos olim Jabbor Eshonqul bir maqolasida: “Ko‘ngilga yaqin odaming haqida, ayniqsa, o‘zing mehr ko‘rgan, mehr qo‘ygan ustozing haqida yozish juda ham og‘ir bo‘lar ekan”, – deydi. Darhaqiqat, bu gapni o‘sha mahal uncha elamay, ustoz haqida istagancha yozish, gapirish mumkin deb o‘ylagan ekanman. Mana endi gapni nimadan boshlashni bilmay hayronman. Negaki, otangday ulug‘ inson, mehribon va samimiy ustozning hislatlarini qog‘ozga ko‘chirish mushkul ish ekan. Ustozning biz shogirdlarga qilgan son-sanoqsiz yaxshiliklarini birma-bir tilga olish mas’uliyati kishini shoshirib qo‘yarkan.

“Ko‘zga sababsiz cho‘p tushmas” deyдилar. So‘zni, avvalo, meni Rahmatulla Barakayevday bag‘rikeng, shogirdparvar insonga duchlashtirgan sababiyatdan boshlay qolay.

Institutni tamomlash arafasida Abdurauf Fitrat ijodi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishi yozishga to‘g‘ri kelgan edi. Material yig‘ish, ko‘pgina ilmiy kitoblarni o‘qish hamda diplom ishini yozish jarayonida uyg‘ongan ilmga rag‘bat va muhabbat keyinchalik doimiy mashg‘ulotimga aylandi. Bu havas ma’naviyat bo‘limida ishlab yurganimda ham, akademik litseyda dars berib yurgan paytlarimda ham aslo tinchlik bermadi. Abituriyentlikdan ustozlik qilgan, bilim bilan birga, she‘r yozishga bo‘lgan ishtiyoqimni oshirgan ustoz Olimjon Qayumovga adabiyot yo‘nalishida ilmiy ish qilmoqchi ekanimni aytdim. Shunda u kishi: “Ertaga zarur ish bilan Toshkentga ketyapman. Xohlasangiz yuring, birga borib kelamiz. Bahonada O‘zbek tili, adabiyoti va folklor institutidagi ustozlar bilan maslahatlashib, ilmiy ish mavzusini belgilab qaytamiz”, – deb qoldi... Yo‘l-yo‘lakay Olimjon aka dissertatsiya, uning tuzilishi, ilmiy ishga mavzu tanlashda e‘tibor beriladigan jihatlar haqida gapira turib: “Folklor bo‘yicha ilmiy ish qilsangiz bo‘lmaydimi?” deb qoldi. (bois, Olim aka bu paytda o‘zi ham folkloridan ilmiy ish olib borayotgan hamda kafedramizdagi asosiy tadqiqotlar shu yo‘nalishda bo‘lib, bir tadqiqotchimiz o‘zbek marosim folklorini o‘rgangan bo‘lsa, ikkinchisi o‘zbek folklorida Simurg‘, boshqasi – ilon obrazlarini tadqiq qilishgan edi.) Shu sabab xayolimdan hazil-chin aralash o‘tgan: “Folklorda toshbaqa yo chayon obrazini o‘rgansam kerak” degan o‘yni domlaga aytsam, kulib: “Xo‘-o‘-p, boraveraylik-chi” deb qo‘ya qoldi. Kech soat o‘n birlarda Olim akaning ilmiy rahbari professor Mamatqul Jo‘rayevning (oxiratlari obod bo‘lsin!) xonadoniga kirib bordik. Mamatqul aka bizni ochiq chehra bilan kutib oldi (Aslida bu institutda ishlaydigan barcha ustozlar shunday mehrli va

samimiy ekanligini keyinroq bilganman). Ustoz bizga yuqori kurslarda ma’ruza o‘qiganlari, qolaversa, kafedramizda soatbay ishlaganlari uchun darhol suhbatimizga jon kirdi. Gap orasida maqsad-muddaomizni ham aytdik.

– Mavzu tadqiqotchining qiziqishlari doirasida bo‘lsa, izlanuvchi ham, fan ham bundan faqatgina yutadi. Shuning uchun imkon qadar qiziqqan yo‘nalishingiz bo‘yicha mavzu tanlasangiz maqsadga muvofiq bo‘ladi”, – dedi ustoz.

– Bolalar adabiyoti bo‘yicha, aniqrog‘i, bolalar she’riyati bo‘yicha izlanish olib bormoqchi edim – dedim biroz istihola bilan. Mamatqul aka nimalarnidir mulohaza qilib ko‘rdi-da, nim tabassum bilan suhbatga yakun yasadi:

– Unda sizni o‘zbek bolalar adabiyotining jonkuyar olimi bilan duchlashtiraman, uka. Uzoq yo‘l bosib kelgansizlar. Sizlar bemalol yotib dam olinglar. Mening ham yozuv-chizuvlarim bor. Qolgan gaplarni ertaga gaplashamiz.

### Uchrashuv

Biz ertasi kuni O‘zR FA O‘zbek tili va adabiyoti institutining oldingi binosi, akademiklar shaharchasiga soat sakkizlarda yetib keldik. Bu dargohda ish vaqti to‘qqizdan boshlangani sabab xodimlar hali kelishmagan. Mamatqul Jo‘rayev bizni 2-qavatdagi xonalardan biriga boshladi. Birin-ketin ichkari kirdik. Ish stolida bir uyum qog‘ozlarga ko‘milib o‘tirgan, yuz-ko‘zidan ilm va nur yog‘ilib turgan kishi o‘rnidan turib ko‘rishmoqqa chog‘landi. Hammamiz bilan hol-ahvol so‘rashgandan keyin Mamatqul aka:

– Barakayev, Olimjonni taniysiz. O‘zimizda aspiranturada o‘qigan. O‘zbek folklorida pari obrazini ishlagan edi.

– Ha, albatta. Taniyman.

– Bu yigit – dedi domla menga ishora qilib, – she’riyatga qiziqadi. She’rlar mashq qilib turadi. (Kafedrada ilk mashq she’rlarimdan o‘qib berganim ustozning yodida turgan ekan!) Bolalar adabiyoti bo‘yicha ilmiy ish qilishni niyat qilib yuribdi. Shu yigitga o‘zingiz yo‘l-yo‘riq ko‘rsatsangiz.

Domla bir lahza sukutga toldi. Stoldagi qog‘ozlariga bir qur nazar tashladi-da, vazmin gap boshladi:

– Rostini aytganda, bugungi kunda o‘zbek bolalar adabiyoti bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ancha siyraklashib qoldi. Nashr ishlari ham ko‘ngildagidek emas. Mayli, bu yigit bilan suhbatlashib, bir-ikki vazifa berib ko‘ray. Xatti-harakatiga qarab yana fikrlashamiz.

– Unda sizlarni yolg‘iz qoldiraylik. Olimjon bilan bizning ham maslahatlashadigan ishlarimiz bor.

Xoli qolganimizda domla bolalar adabiyoti, uning tabiati, kattalar adabiyotidan farqli tomonlari haqida to‘lib-toshib gapirar ekan, o‘z fikrlarini

dalillash uchun goh jahon adabiyoti, goh o‘zbek adabiyoti namunalaridan misollar keltirdi. Xususan, Anvar Obidjon va uning ijodi xususida jo‘shib gapirar, gali bilan bu haqda mening ham fikrlarimni so‘rardi. O‘shanda, bilsangiz bunday maroqli suhbat va ilmiy mulohazalarni ilgari eshitmaganim sabablimi, yoki boshqa bir sababmi go‘yo ong-u shuurimga asta-sekin nur ina boshlaganini sezib turardim...

### **Shoirlar davrasida**

Uchrashuvlarimizdan birida ustoz:

– Siz o‘rganayotgan ijodkor adabiyotning qaysi davriga mansub? – deya so‘rab qoldi. Dabdrustdan, ustoz o‘zi mavzu sifatida bergan Anvar Obidjon haqida berilgan va kutilmagan bu savoldan gangib ham taajjublangan holda:

– Anvar Obidjon o‘tgan asrning 70-yillarida adabiyotga kirib kelgan. Hozirgi adabiy jarayonda ham faol ijodkorlardan, – dedim.

– Ha, barakalla. Anvar aka Navoiy yo Muqimiy davrida ijod qilmagan-ku! “Navoiy g‘azalida uni nazarda tutgan, Muqimiy muxammasida buni ko‘zlagan” deb yursak. Allohga shukrlar bo‘lsinki, u kishi hayot. Ijodiga xos ayrim savollarni o‘zlaridan so‘rab ko‘rishimiz mumkin. Keyingi safar shoirga beradigan savollaringiz daftarga yozib keling. Yozgan maqolalaringizni ham olib keling. Ko‘rsatib, fikrlarini ham so‘rab olamiz. Men Anvar aka bilan maslahatlashib bir kunni tayin qilib qo‘yaman. Bu taklifdan behad xursand bo‘ldim. Ikki yildan beri ijod namunalari orqali g‘oyibona ko‘ngillashib yurganim ijodkor bilan yuzma-yuz ko‘rishish, suhbatlashish zavqi o‘sha lahzadanoq qalbimga bezovtalik uchqunini socha boshladi. Garchi o‘tiladigan darslarim muammosini hal qilish, rahbariyatdan ruxsat olish masalalari ko‘nglimga g‘ashlik solib turgan bo‘lsa-da, tezroq qaytib kelishga ahd qilib, ustoz bilan xayrlashdim.

Bir kuni ustoz qo‘ng‘iroq qilib, Anvar aka bilan gaplashganini, yakshanba kuni uchrashishimiz mumkinligini aytib qoldi...

Adabiy guruh uchun Tursunboy Adashboevning xonadoni tanlangan ekan. Shu kuni ustoz sharofati bilan birvarakayiga o‘zbek bolalar adabiyotining ikki zabardast vakili bilan yuzma-yuz ko‘rishib turganimdan hayajonda edim. Tanishuv, hol-ahvol so‘rashishlardan keyin adabiyot, bolalar she‘riyati, tarjimalar, nashr ishlari haqida qizg‘in suhbat kechdi... Domlaning ishorasi bilan hozirgacha qoralagan maqolalarimni Anvar akaga uzatdim. Shoir diqqat bilan har bir maqolani o‘qib chiqdi. Rahmatullo! – dedi Anvar aka qog‘ozdan bosh ko‘tarib. – Sizga katta rahmat. Siz birinchilardan bo‘lib mening majoziy ruhda yozilgan she‘rlarim zamiridagi asl ma‘noni anglagan holda munosib baho berib kelayapsiz. Mana, shogirdlaringizning maqolalarida ham sizning qarashlaringiz ta‘siri sezilib turibdi. Haqiqatan ham risolangiz, maqolalaringizda tahlilga tortganingiz “Uchinchi

palapon”, “Yantoqlar haqida qo‘shiq”, “Tillaqo‘ng‘izning javobi”, “Aka-uka” she‘rlarimda aytmoqchi bo‘lgan “gap”imni qog‘ozga o‘rab bergan edim. Xans Kristian Andersen ta‘biri bilan aytganda, bolalar adabiyoti – ikki planli adabiyot-ku, to‘g‘rimi!..

Shu kuni yon daftaringa yozib kelgan savollarga Anvar akadan batafsil javob olganim, saylanma kitobiga dastxat yozib berganiga qanchalik xursand bo‘lsam, adabiyotshunos olim va ijodkorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, hamkorlik, mehr, samimiyatdan shunchalik lol edim.

### **Ustoz bilan hamnafas**

...Xayol boshqa, hayot boshqa, deydilar. Oradan salkam olti oy o‘tib ketdi. Kundalik tashvishlar bilan andarmon bo‘lib yurganimda institutimizga qandaydir tadbir munosabati bilan tashrif buyurgan domla meni yo‘qlayotganini aytishdi. Bordim. Salom-alikdan so‘ng ustoz ranjigan ohangda so‘z qotdi:

– Zafarjon, inson hoy-u havaslarining chek-chegarasi yo‘q. Bu yerda tashvishlaringizga ko‘milib yuraversangiz, vaqt o‘tib ketaveradi. Ilmiy ish esa siljimaydi. Yaqinda bizda tayanch doktoranturaga qabul boshlanadi. Hujjat topshiring. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirsangiz, harholda yonimda bo‘lasiz. Ilmiy davralarni ko‘rasiz. Adabiyotshunos olimlarning suhbatlarini eshitasiz. Muhit tadqiqotchini tarbiyalaydi. Xalqimizda “Yomonning yaxshisi bo‘lguncha yaxshining yomoni bo‘l” degan maqol bor. O‘ylab, tezroq bir qarorga keling...

Doktoranturadagi uch yillik tahsil, ustoz bilan hamnafas o‘tkazgan damlarim umrimning eng taassurotlarga boy damlari desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Garchi dastlabki kunlardanoq kutubxonalarda bajaradigan ishlarim rejasi tuzilgan bo‘lsa-da, Ustoz har hafta yo hafta oralab qo‘limga kitob tutqazadi.

– Shu kitobni ko‘rib chiqing-chi. Bunisi qaytarib berish sharti bilan. Mana bunisi esa sizga sovg‘a!..

Keyinchalik ustoz yozgan kitob va maqolalarni ham mutolaa qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ularda o‘zbek bolalar adabiyotining Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi namoyandalaridan tortib, bugungi kunda adabiyotga kirib kelayotgan umidli qalamkashlar ijodiga baho berilganiga guvoh bo‘ldim. Va yana angladimki, domla shogirdlariga dissertatsiya uchun tanlagan mavzularni avvalo o‘zi puxta o‘rgangan. Darslik, monografiya, qo‘llanmalarida, qolaversa, qator maqolalarida mulohaza bildirgan. Aslida Q.Hikmat, H.Nazir, T.Adashboyev, S.Barnoyev, A.Obidjon hayoti va ijodi monografik planda o‘rganilgan qator tadqiqotlar mana shu mulohazalarning mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan...

Ustoz bilan qabatma-qabat yurib o‘tkazgan damlarim haqida o‘ylar ekanman: “Shogirdini farzand maqomida ko‘rib, uning ota-onasi, oilasidagi ahvol, hatto

farzandlarining maktabdagi o‘qishlari, yutuq va kamchiliklarini so‘rab-surishtiradigan, zarur o‘rinda ko‘makka qo‘l cho‘zadigan Ustozlarning qalbi qay buloqdan suv ichar ekan? Tetapoya boladay qo‘lidan yetaklab, yutug‘idan quvonib, nuqsonlaridan ko‘z yumib, iqbolini tilaydigan Murabbiylar sabr-bardoshni qaydan olarkinlar-a? degan savollar xayolimda g‘ujg‘on o‘ynaydi.

Bugun qutlug‘ 70 yoshni qarshilayotgan mehri daryo Ustozimizga mustahkam sog‘lik, kuch-quvvat tilaymiz. Alloh umrlarini ziyoda qilsin!